




O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

“Matndan ma’noga qadar”(ona tili darslarida o‘qish savodxonligini rivojlantiruvchi usullar)

Mustafoyev G`anisher Ikromovich
Navoiy Shahar 11- AFCHO`IM ona tili va adabiyot fani
o`qituvchisi

O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar...



O‘qish savodxonligini rivojlantiruvchi samarali metodlar

- “Miks ovozlari” usuli
- “Ma’nolar raqamlarda” usuli
- “Screenshot” usuli

“MIKS OVOZLAR” USULI

10-sinf ona tili “Seriallar va biz” mavzusi

- **Qancha umrimiz yelga sovurilmoqda?**

Aslida, barcha seriallarning mushtarak bir xususiyati bor: serialning har bir qismi, odatda, eng kulminatsion nuqtada yakunlanadi va “Keyingi qismda nima bo‘larkin?” degan savol tomoshabin miyasida aylanaveradi... Bu holda u keyingi qismni eng kamida bir kun, ba‘zan esa haftalab yurak hovuchlab kutishiga to‘g‘ri keladi. Bunga esa hammaning ham sabri dosh bera olmasligi aniq va tabiiyki, endi uyda, ko‘cha-ko‘yda va hatto ishxonada ham serial muhokama mavzusiga aylanadi. Ya‘ni qiziqish maroqqa, maroq hayajonga, hayajon esa telbavor tutqunlikka aylanadi. Kunlar shu yo‘sin o‘taveradi, oltinga teng umr esa yelga sovurilaveradi.



“Ma’nolar raqamlarda” usuli


7-sinf ona tili. Mavzu: Xarajatlarni farqlash.

Oylik maosh olishimiz bilan juda ko‘pchiligimiz uni turli sarf-xarajatlarga taqsimlab chiqamiz. Barcha xarajatlar ham birdek emas. Ijara haqi, kommunal to‘lovlar kabi ba’zi xarajatlar borki, ular zaruriy va majburiydir. Yana bir tur xarajatlar bizning hayotimizni yanada to‘liq va quvonchga boyroq qilsa-da, zaruriy yoki majburiy hisoblanmaydi, ular mutlaqo ixtiyoriydir.


Zaruriy, majburiy va ixtiyoriy xarajatlar o‘rtasidagi farqni tushunish byudjetimizni to‘g‘ri taqsimlab, sarfxarajatimizni kamaytirishga yordam berishi mumkin. Byudjet bu bir oy davomida biz topadigan va sarflaydigan barcha pullarning miqdoridir. Byudjet hisobini yuritish sarf-xarajatni nazorat qilish, u ishlab topadigan pulimizdan ko‘payib ketishining oldini olishga yordam beradi.



Ixtiyoriy xarajatlar



Majburiy xarajatlar



“SKREENSHOT” USULI



- 5-sinf ona tili darslarida foydalanish uchun

Daromad



-

Farzan



Balan



“Skrenshot” usuli



- Bilamizki, skrenshot bu kerakli ma'lumotni rasm holatida saqlab olishdir. Tabiiyki bunday holat inson miyasida ham ko'z xotirasi orqali ro'y beradi. Berilgan matn qismlarini joylashish o'rniga qarab eslab qolish ma'lumotning uzoq vaqt xotirada saqlanishini ham ta'minlaydi. O'quvchi bu usuldan foydalangan holda matn uchun berilgan topshiriqlarni tez va oson bajaradi.

“Simob” matni

1. Qalay va qo'rg'oshin nisbatan past haroratlarda ham erishini siz yaxshi bilasiz. Ularning erishi

uchun 200–300 °C orasidagi harorat kifoya qiladi. Ishqoriy metallar yanada pastroq haroratlarda ham erib, suyuqlanib ketadi. Masalan, seziy metalining erishi uchun quyoshli kundagi issiq harorat yetarli bo'ladi. Shunday bir metall borki, hatto sovuq haroratda ham suyuqligicha qolaveradi. Bu davriy jadvaldagi 80-raqamli element *simob* hisoblanadi.

2. Simobning ingliz tilidagi va xalqaro ilmiy nomi esa "*mercury*" bo'lib, u zamonaviy kimyoga o'rta asr alkimyogarlardan meros qolgan. O'rta asr alkimyogarlari o'zlari tanish bo'lgan kam sonli elementlarni osmon jismlarining nomlari bilan atash an'anasiga ega bo'lishgan. Masalan, ular oltinni Quyosh, kumushni Oy, temirni Mars, misni Venera nomi bilan atashgan. Buning hayron qoladigan joyi yo'q.

“Simob” matni

3. Xona haroratida eng og‘ir suyuqlik bo‘lgani uchun simobdan ob-havoni bashorat qilishda foydalanish mumkin va buni odamlar anchadan buyon yaxshi o‘zlashtirib olishgan. Ob-havo ma’lumotlaridagi eng asosiy ko‘rsatkichdan biri atmosfera bosimi haqidagi ma’lumotdir. Ko‘plab omillar ta’sirida, xususan, Quyosh nurlari, tog‘lar, okeanlar va hokazolar tufayli Yer atmosferasi bir joyda zichlashib, *yuqori bosimga* ega bo‘lib qoladi. Boshqa bir hududda esa atmosfera siyraklashib, bosim pasayadi

“Simob” matni asosida topshiriqlar

1. Matn mazmuniga ko‘ra noto‘g‘ri shakllantirilgan gapni toping.

- A) Simob o‘rta asr kimyogarlari tomonidan kashf etilgan
- B) Simobning erishi uchun quyoshli kundagi issiq harorat yetarli
- C) Kimyogarlar Quyoshni oltinga qiyoslashgan
- D) Atmosfera bosimi ob-havo ma’lumotlaridagi asosiy ko‘rsatkichdir

2. Matn mazmuniga mos bo‘lgan ma’lumotni ko‘rsating.

- A) Simob termometr uchun asosiy vosita hisoblanadi.
- B) Simob elementlar davriy jadvalidagi 81- element hisoblanadi.
- C) Past haroratda eriydigan metallar ishqoriy metallar emas.
- D) Yer atmosferasidagi yuqori bosim Quyosh nurlariga ta’sir etadi.

**E'TIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT!**